

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA USTUVORLIGI

Niyazov Kamoladdin Sedametovich,
UrDU "TSvaMG" kafedrası katta o'qituvchisi

Yoqubboyeva Sevara Qurbondurdiyevna
UrDU "TSvaMG" yo'nalishi sirtqi bo'lim 5- kurs talabasi

Annotatsiya:

Ta'lim-tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish yosh avlodning ma'naviyati, madaniyatini shakllantirishning kunningdolzarb vazifasidir.

Kalit so'zlar: Zardushtiylik, Jayxun, barbi, Nasriddin Afandi, Kachal polvon, kompozitsiya, Belgiya, Antverpen, Yaponiya, Xiroyama

Bugun milliy san'atimizning umumjahon badiiy manzarasining ajralmas va uziga xos buguni sifatida gavdalanadi. San'atning an'anaviy turlari bilan bir katorda sharq va g'arb madaniyatlari uyg'unlashuvini namoyon etuvchi san'at shakllari xam to'laqonli rivojlandi. 1991-2022 yillar davomida O'zbekiston san'ati murakkab va serqirra rivojlanish yulini bosib o'tmoqda. Ko'hna tarix oldida 30 yil albatta qisqa bir laxzadek tuyulsada, davlatimiz taqdirida yuz bergan, tub tarixiy burilishlar avvalambor, mustaqillikning qo'lga kiritilishi ko'hna ijtimoiy xayotning barcha qatlamlariga o'zining ulkan ijobiy ta'sirini o'tkazdi.

Davlatimiz mustaqilligi bilan bog'liq dolzarb mafkuviy vazifalar, xayot xaqiqati, milliy madaniy qadriyatlar tizimiga bo'lgan ulkan e'tibor san'at doirasidagi masalalarga yangi g'oyaviy yondoshuvlarni shakllantirdi.

Shu bilan birga Xorazm milliy an'analarining qayta tiklanib, zamonaviy san'at bilan uyg'unlashgan holda yangicha bir ko'rinishi aks ettirildi.

Bugun biz misilsiz xodisa-san'atning yasharishi va yashnashi boshlanayotgan davomli jarayon ostanasida turibmiz. Ko'z o'ngimizda Xorazm xalq xunarmandchiligi san'ati maktabining yangi turlari tug'ilib kelmoqda. Bu san'at mustaqillik yulida borayotgan halqqa munosib bo'lmoqda.

Ana shu vaqtdan boshlab Xorazm xalq xunarmandchiligi san'atining rivojlanishida yangi saxifa ochildi. Xalq xunarmandlarining ijodiy faoliyatida realistik talqin xamda ijtimoiy mavzular endi majburiy shartlar bo'lmay qoldi, kasbiy mahorat va



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ijodkorning o'zi yaxshi xis etgan olamini ifodalashga bo'lgan shuuri ijodning bosh mezonlariga aylandi¹.



Xalq xunarmandchiligi ustalari o'z madaniy merosining an'analariga va jahon badiiy jarayonidagi ilg'or oqimlarga tabora faol va dadillik bilan murojat etishmoqda. Xorazm xalq xunarmandchiligi san'at ustalarining ijodiy izlanishlari rang – barang va bir – biriga o'xshamasdir. Bugun ular o'z uslubi va ijodiy yunalishlarini tanlashda butunlay erkin bo'lib, bu esa milliy

san'atimizga takrorlanmas o'ziga xoslikni baxsh etadi.

Qadimiy Xorazm aslida bir necha ming yillar davomida xilma-xil voqealarga boyligi bilan tarix saxifalarini to'ldirgan afsonaviy o'lka hisoblanadi.

Xorazm voxasida yashovchi turli elat va xalqlar bu go'zal o'lkani chin qalbdan sevib, o'z kuy va qo'shiqlarida, afsona va rivoyatlarda, ertak hamda dostonlarida vohaning tabiiy-geografik sharoitlari, shuningdek unda yashovchi urug'-aymoq va qabilalar o'tmishi, ularning xo'jalik faoliyati, urf-odatlarini tarannum etib kelganlar. Tarixiy manbalardan paydo bo'lish tarixi ham o'z ifodasini topgan.

O'sha ertaklardagi doston va rivoyatlardagi hikoyalarni nafaqat og'zaki ijodda balki, qo'g'irchoqlar yasab saxnalashtirib qo'g'irchoqbozlik qilganlar.

Qo'g'irchoqni loydan, yog'ochdan, somon cho'plardan va matolardan yasashgan. Xorazmda qadim Zardushtiylik dinida ilohiyotni tasvirlovchi haykallar yasalgan. Bu ilohiy haykallar yog'ochdan, loydan yasalgan. Jamiyatni o'zarib borishi bilan islom ma'daniyati davrida asta-sekin qo'g'irchoqlar bilan ertak masal, turli kulgili, ba'zan kuchli satirik lavxalarni o'ynay boshlashdi.

Inqilobdan so'ng Sobiq sho'ro davrida O'zbekistonning boshqa viloyatlari kabi Xorazmda ham Rus xalqiga mansub bo'lgan qo'g'irchoqlar kirib keldi. Xattoki bolalar bog'chalarida ham sotuv rastalarida ham sochlari sariq, yuz tuzilishi Yevropa xalqlariga mansub qo'g'irchoqlar mavjud edi. Yurtimiz mustaqillikga erishgach, madaniyatimiz, san'atimiz, urf-odatlarimiz qayta tiklanib, qadryatlarimizga bo'lgan

¹ Абдуллаев. Ўзбекистон санъати тарихи. Т., Фан. 2007 й. 86 б.

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

e'tibor yanada tiklandi². Xorazmda qator qo'g'irchoq teatrlari tashkil qilindi. Xiva qo'g'irchoq teatri, Xonqada Jayxun qo'g'irchoq teatrlari tashkil qilinib, bu teatrlarda ko'plab iste'dodli san'atkorlar ijod qila boshlashdi. Dastlabki qo'g'irchoqlar materiallar yog'och, pape-mashedan ishlangan bo'lsa, keyinchalik loydan ishlanib boshlandi. Bu esa qo'g'irchoqsozlik san'ati deb nomlanadi. Saxnani dekorativ bezatib biror voqeani tasvirlab qo'g'irchoq o'ynatish qo'g'irchoqbozlik san'ati hisoblanadi. Xorazm milliy qo'g'irchoq san'ati asosan yurtimizning mustaqillik yillariga to'g'ri keladi. Asosan Xorazm qo'g'irchoq san'atiga milliy rux kiritgan san'atkor bu Mansurbek Quryozov sanaladi. Mansurbek Quryozov yasagan qo'g'irchoqlar bolajonlarga mexr taftini beradi. Ular G'arbning istarasi sovuq barbilaridan farq qiladi.

Bu qo'g'irchoqlarning yana bir muhim tomoni ularni o'ynagan bola milliy ruhda tarbiya topadi. Mansurbek Quryozov va shogirdlari har bir qo'g'irchoqni muhabbat bilan, qalb qo'ri bilan yasaydilar. Ishlarida milliy matolardan tabiiy buyumlardan foydalanadilar. Shuning uchun ham qo'g'irchoqlari bolajonlarga manzur bo'layapti.



San'atkor milliy rux va tusdagi qo'g'irchoqlarni bir qancha hunarmandlar ko'rgazmasida namoyish qildi. Ko'rgazmalarda namoyish qilingan qo'g'irchoqlarda atlasu adras liboslarida, chamangul do'ppilarda qoshi ko'zi popukdek milliy qo'g'irchoqlar tomoshabinlarda katta

taassurotlar qoldirgan. Sababi oddiy: ular qiyofasida bizga tanish, o'xshash chehralar aks etgan. Ko'rgazmalarga tashrif buyurgan onaxonlar nabiralariga atab qo'g'irchoqlar olishgan. San'atkor qo'g'irchoq yasash orqali balki qo'g'irchoqbozlik san'ati orqali ham jahonga tanilib bormoqda. Bu teatrni qo'g'irchoqlar fabrikasiga qiyoslash mumkin. Nasriddin Afandi, Kachal polvon kabi mitti odamchalar Gulzoda va Bibijon Quryozoalar tikkan chiroyli liboslarini kiyib olib, Germaniya, Frantsiya, Ispaniya, Gretsiya, Rossiya, Belgiya kabi davlatlarni kezib yurishibdi. Bundan tashqari Parij shaxrining qo'g'irchoqlar muzeyida,

² И.Жабборов “Буюк Хоразмшоҳлар давлати” Т., 1999.й

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Belgiyaning Antverpen muzeyida, Yaponiyaning Xiroyama shahar muzeylarida ko'rgazmalar tashkil qilinib, o'zbek madaniyat va san'ati namunalarini dunyoga ko'z-ko'z qilishayapti.³

Ushbu Xorazmlik san'atkorlarimizning ijodi informatsion xurujlar va axborot davrida shiddat bilan hayotimizga kirib kelayotgan, yosh va navnihol farzandlarimizning ongu shuurini egallashga harakat qilayotgan turli xil o'yinchoqlar shaklidagi g'oyaviy salbiy ta'sirlarga qarshi farzanlarimizni ma'naviy yuksaltirish, ularni qadryatlarimizga sadoqat ruhida ulg'aytirish g'oyasi mujassamlashgandir. Demak, qiziqish oshgan, imkoniyatlar ko'paygan kabi san'atkorlar safi yanada ko'payishi va Xorazm milliy qo'g'irchoq san'ati jahon san'ati durdonalari qatoridan o'rin olishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев. Ўзбекистон санъати тарихи. Т., Фан. 2007 й. 86 б.
2. И.Жабборов “Буюк Хоразмшоҳлар давлати” Т., 1999.й.
3. С. Ҳакимова ва бошқ. “Хонқа тарихи” Урганч. “Хоразм”-нашриёти-1995.й.
4. Qodirov M. Tomosha san'ati o'tmishidan lavhalar. -Т.: Fan, 1993, 163-bet.
5. M.Jo'raeva. “Qo'g'irchoq teatri” to'garagi. -Т.: 2013.

³ С. Ҳакимова ва бошқ. “Хонқа тарихи” Урганч. “Хоразм”-нашриёти-1995.й.

